

**O‘ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARGA
IJTIMOIY YORDAM KO‘RSATISH BO‘YICHA OLIB
BORILAYOTGAN ISHLAR XUSUSIDA**

Madrahimova Muhayyo Sultonboyevna

Uchtepa tumani 295-maktab Tarix fani O‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, bugungi kunda mamlakatimizda, nogironligi bo‘lgan shaxslarga, jamiyat va davlat tomonidan ko‘mak va yordam berish, ularni ijtimoiy-siyosiy hayotga faol jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida himoya etish, ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish juda muhimdir. Zero, nogironligi bor fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash yurtimizda inson qadrini yanada ulug‘lashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, inklyuziv ta‘lim, abilitatsiya, rehabilitatsiya, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha tizimli ravishda ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Xususan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari 2 baravarga oshib, kam ta‘minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobarga ko‘paydi va nogironligi bo‘lgan shaxslar va nogironligi bo‘lgan bolalarning parvarishi bilan band bo‘lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy qilindi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni hayotga moslashtirish hamda ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo‘yicha ham katta ishlar olib borilayotganligini ham aytishimiz mumkin. Xususan, so‘ngi yillarda 27 ta tibbiy-ijtimoiy muassasalar yangidan ta‘mir qilinib, zamon talablariga mos bo‘lgan 1,5 mingta davolash rehabilitatsiya o‘rinlari yaratildi. Xalq ta‘limi tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, inklyuziv ta‘limni rivojlantirish uchun, qariyb 300 dan ortiq maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishlari uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlar tashkil etildi. Chunki nogironligi bo‘lgan insonlar – jamiyatimizning to‘laqonli a‘zosi. Bizning mamlakatimizda jamiyatning har bir a‘zosi bilim olishi, zamonaviy kasblarni egasi bo‘lishi, o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi, o‘zi sevgan ish, mehnat bilan shug‘ullanishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun munosib bo‘lgan ish o‘rinlarini yaratish orqali ularning daromadini ko‘paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham kuchaytirilmoqda.

Mehr-muruvvatli va bag‘rikeng xalqimiz azal-azaldan yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni jamiyatda

tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e'zozlab keladi. [1].

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligi bu sohani yagona yondashuv asosida isloh etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda nogironlikning har xil turlari ko'payib bormoqda. Ayniqsa, nogironlik turlari orasida asab tizimi kasalliklari, tug'ma anomaliyalar, tuberkulyoz, onkologik, suyak-mushak tizimi, qon kasalliklari turlari boshqa nogironlik turlariga nisbatan ortib bormoqda [2]. Bundan kelib chiqib, davlatimiz tomonidan reabilitatsiya, ilmiy ishlab chiqarish markazlari, davlat sog'liqni saqlash tizimidagi ambulatoriya va statsionar davolash-profilaktika muassasalari, nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish statsionar muassasalarida tiklash terapiyasi bo'linmalari, ixtisoslashtirilgan sanatoriya muassasalari tashkil etildi.

2020 yil 15 oktabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari" to'g'risidagi qonuni qabul qilindi. 2023 yil 27-fevralda esa PQ-74 –sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmonida Nogironlikni belgilashda fuqarolarga qo'shimcha yengilliklar yaratish maqsadida quyidagilar belgilangan:

a).2023 yil 1-apreldan boshlab nogironlik idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan, anatomic nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklar va asoratlarda fuqarolarning ishtirokisiz belgilanadi.

b).Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi 2023 yil 1-aprelga qadar nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish konsepsiyasi loyihasini kiritsin, unda:

fuqarolarning mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasidan kelib chiqib, nogironlikni belgilash amaliyotidan voz kechib, uning o'rniga jahon standartlari asosida nogironlikni belgilashga hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning hayotga ijtimoiy moslasuvi va ularning sog'lig'ini qayta tiklashga; nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay formatlardagi axborot texnologiyalaridan, imo-ishora tilidan hamda muloqotning boshqa muqobil shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratishga e'tibor qaratilsin.[3]. Bunga qadar, Harakatlar strategiyasi doirasida, jumladan, Prezidentimiz tomonidan 2021 yil 25-martda "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Sahovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmon, 2021 yil 27-noyabrda "Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati faoliyati hamda bolalarga nogironlikni belgilash

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilingan va ijroga yo'naltirilgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish masalalari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjati bilan tartibga solinmoqda.

Xususan, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida", "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida", "Aholi bandligi to'g'risida", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda nogironlik sohasida 600 ga yaqin nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat olib bormoqda. Ular orasida: O'zbekiston nogironlar jamiyati; O'zbekiston nogironlar jamoat fondi; O'zbekiston nogiron ishbilarmon ayollar milliy assotsiatsiyasi; Imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi; O'zbekistondagi falaj nogiron bolalar o'smirlarga yordam berish "Umr" jamoatchilik markazi; "Inklyuziv hayot" nogironlar jamoat birlashmasi; O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati; O'zbekiston karlar jamiyati kabi NNTlar bor. Bularning hammasi nogironlarni ijtimoiy himoya qilish va ularga xizmat ko'rsatish tizimining so'ngi yillarda yangicha ma'no kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 760 ming 727 nafar nogironligi bo'lgan shaxs istiqomat qiladi. Shularning 100 mingdan ortig'i 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalardir. Ular ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya choralari bilan to'liq qamrab olingan.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid milliy qonunchilikda quyidagilar nazarda tutilgan:

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi barcha huquqlarini tartibga soluvchi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun; Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar; Sog'likni saqlash va tibbiy xizmat ko'rsatish; Bandlik masalalari jismoniy tarbiya, sport va dam olish ijtimoiy ob'ektlar va xizmatlar; Transport, aloqa va axborot vositalaridan foydalanish; Odil dudlov; Davlat va jamoat ishlarida ishtirok etish; Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik kabi normalardan tashkil topgan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan ko'zi ojizlar jamiyati yurtimizdagi ko'zi ojizlar jamoatchiligini birlashtirgan yagona kuch hisoblanadi. Ayni damda mamlakatimizdagi qariyb, 78 ming nafar ko'zi ojizning 61 ming nafardan ortig'i bu jamiyatga olingan. Mazkur Jamiyat qo'llab-quvvatlashi ostida

ishlovchi ko'zi o'g'ir insonlar soni 2 ming 855 nafarni tashkil qiladi. Shundan 1 ming nafardan ziyodi Jamiyat korxonalarida, 545 nafari Jamiyat tizimida va 1 ming 210 nafari tizimdan tashqari turli tashkilotlarda faoliyat yuritmoqda [4]. Bu albatta, quvonarli holatdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashning 2021 yil 22 fevralda bo'lib o'tgan 46-sessiyasi minbaridan turib, imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzish taklifini xalqaro hamjamiyat e'tiboriga taqdim etarkan, O'zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilayotganini ta'kidlagani bejizga emas.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan jamiyatimizda imkoniyati cheklangan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarimiz doimo davlat muhofazasidadir.. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan va ijrosi izchil ravishda amalga oshirilayotgan qaror, farmon va asosiy huquqiy me'yorlar yurtimizdagi imkoniyati cheklangan fuqarolarimizni ham moddiy, ham ma'naviy qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Dunyo tajribasida bolaligidan nogiron bo'lgan yosh avlodni hayotda o'z o'rnini topishlariga yordam berish, jamiyatning bir a'zosi sifatida ijtimoiy moslashuvlarini yo'lga qo'yib, ularga qulay bo'lgan sharoitlarni yaratib berish masalalari hozirgi globallashuv davrida yanada katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

Jamiyatimizning barcha sohalarida yuksak marralarni egallashga qodir bo'lgan yoshlarimizning o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari va hayotda o'zining munosib o'rnini topishlari yo'lida ularning imkoniyatlarini kengaytirish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqi (2021-yil 3-dekabr)

2. O'zbekiston Respublikasida birlamchi nogironlik holati va uning 2013-2015 yillardagi solishtirma ko'rsatkichlari tahlili (tahliliy-statistik qo'llanma). – Toshkent: Istiqbol, 2017. – B.33.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2022 yil 28-yanvar.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti hudud24.uz